

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV  
XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

*«O'simliklar ximoyasi va  
karantini» kafedrasi*



**5410300 – O'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi  
talabalari uchun «Qishloq xo'jalik biotexnologiyasi» fanidan**

**УСЛУГИ КО'РСАТМА**

Андижон-2013

Sizga tavsiya etilayotgan “***Kishlok xujaligi biotexnologiyasi***” fani bo’yicha uslubiy kursatma tasdiqlangan namunaviy dastur asosida yozilgan bo’lib, ushbu fanga doir asosiy tushuncha va ma’lumotlar qisqa bayon etilgan. Tabiiyki, undagi fikrlar fanni to’liq yoritmaydi. SHuning uchun fanni yanada mukammal egallash maqsadida sizga adabiyotlar ro’yxatini ham tavsiya etamiz.

Uslubiy kursatma talabalar, ilmiy xodimlar, o’qituvchilar va aspirantlar uchun mo’ljallangan.

### **TUZUVCHILAR:**

«O’simliklar himoyasi va karantini»

*kafedrasi dotsenti*

**SH.K.Aliyev**

«O’simliklar himoyasi va karantini»

*kafedrasi assistentlari*

**G’.G’.Parpiyev**

**A.A.Pattaev**

**R.S.Axmatxonov**

### **TAQRIZCHILAR:**

«O’simliklar himoyasi va karantini»

*kafedrasi dotsenti*

**Q.X.Xushvaqtov**

Uslubiy ko’rsatma «O’simliklar himoyasi va karantini» kafedrasining \_\_ sonli yig’ilishida («\_\_»\_\_\_\_ 200\_\_ yil).

Agronomiya fakulteti uslubiy kengashining \_\_ sonli yig’ilishida («\_\_»\_\_\_\_ 200\_\_ yil).

Institutning uslubiy kengashining \_\_ sonli yig’ilishida («\_\_»\_\_\_\_ 200\_\_ yil) muhokama qilinib chop etishga tavsiya qilingan

## KIRISH

Biotexnologiya fanining tez su'ratlar bilan rivojlanib borishi, talabalardan bu fanning bekiyos imkoniyatlarini chukur tushunib yetishni takozo etadi. Bu esa uz navbatida fanda kullaniladigan zamonaviy usullarni puxta egallash bilan uzviy boglikdir.

Ushbu kullanmaning maksadi kup kirrali kishlok xujaligi biotexnologiyasi fanining asosiy kismlaridan bulgan xujayra va gen muxandisliklari xamda usimliklarni usishi va rivojlanishini boshkarish bilan boglik bulgan usullar xakida talabalarga yullanma berishdir.

Albatta, fanni tezkorlik bilan rivojlanishi, yangi, tezkor xdmada anik usullari ixtiro kilinishiga olib keladi. SHuning uchun xam ushbu kullanmani kishlok-xujaligi biotexnologiyasi fanining asos usullari deb karamok maksadga muvofik bulur edi.

Ushbu kullanma ilk bor uzbek tilida yozilganligi uchun xam ba'zi-bir kamchiliklardan xoli emas. SHu sababli uni tuzuvchilari - talabalarni, aspirantlarni, ilmiy xodimlar va professor-ukituvchilarni fikr muloxazalarini inobatga olishga tayyor ekanligini bildiradilar.

"^ishlok xujaligi biotexnologiyasidan amaliy laboratoriya mashgulotlari" ukuv amaliy kullanmasi biotexnologiya va unga yakin bulgan boshka soxalarda mutaxassislar tayyorlashda kullanma sifatida tavsiya etiladi.

### qiskacha lugat va kiskartmalar

2,4-D - 2,4 dixlor fenoksisirka kislotasi

ISK - indolil sirka kislotasi

NSK - alfa - naftil sirka kislotasi

GK - Gibberal kislotasi

Nekroz - xayotning tuxtaganligi

Steril - mikrobiologiya nuktai nazaridan toza xolga keltirish

Plazmida - xromasomadan tashkaridagi DNK

DNK - Dezoksiribonuklein kislota

RNK - Ribonuklein kmslota

Xloroplast - kobigsizlangan usimlik xujayrasi

Protoplast - kobigsizlangan mikrob xujayrasi

Endonukleaza - nuklein kislotalarni parchalovchi ferment

EDTA - etilen-diamin-tetrasirka kislota

mkl - mikrolitr

## **I. XUJAYRA MUXANDISLIGI**

### **1 - Mavzu: Xujayra va tukimalarni sun'iy ozika mux,itlarida ustirish texnikasi.**

#### **1 - ish. O'simlik xujayra va tukimalarini ustirish uchun ozika mux,itini tayyorlash**

**Kerakli asbob-uskunalar:** 1 litrli kimyoviy stakanlar (4 ta), boshlangich eritmalarni saklash uchun ogzi zich yopiladigan shisha idishlar (1 litrli 3 dona, 100 ml li 1 dona), penitsillin idishlari (10 dona), 1 - 10 ml li pipetkalar, texnik va analitik tarozilar, elektroisitgich, turli xil kimyoviy moddalar (4 - 5 jadvallarga karalsin).

**Tushuntirish.** Usimlikdan ajratilgan xujayra va tukimalar ustiriladigan ozika muxitda usimliklarga kerakli xamma makroelementlar: azot, fosfor, kaliy, kaltsiy, oltingugurt, magniy, temir va mikroelementlar: bor, rux, mis, kobalt, marganets, yod, molibden, shuningdek vitaminlar, uglevodlar, karbon suvlar, fitogormonlar bulishi kerak. Ba'zi bir ozika muxitlari tarkibida esa kazein gidrolizati va ayrim aminokislotalar bulishi kerak. Bundan tashkari, ozika muxiti tarkibiga, xujayralarning temirga bulgan extiyojini turli rN kursatgichlarda kondirish uchun EDTA (etilendiamin-tetrasirka kislotasi) yoki uning natriyli tuzi kiritilishi kerak. Ajratilgan xujayra va tukimalar ustiriladigan ozika muxitning asosiy tarkibiy kismini uglevodlar tashkil kiladi, chunki xujayra va tukimalar avtotrof oziklanish kobilyatiga ega emas. Kupigcha uglevod manbai sifatida saxaroza yoki glyukozaning 20-40 g/l eritmasi kullaniladi. Uglevodli ozika manbai sifatida polisaxaridlar ishlatilmaydi, chunki ba'zi tukimalar, asosan usmalar faol gidrolitik fermentlarga (amilaza va boshkalar) ega bulib, kraxmal eritmasi bor ozika muxitlarida usishi mumkin. Usish regulyatorlari xujayralar dedeffrentsirovkasi va xujayra tukimalari induktsiyasi uchun zarurdir. SHuning uchun kallusli tukimalar olishda ozika muxitlari tarkibiga auksin (xujayra dedifferentsirovkasini yuzaga keltiruvchilar) va tsitokinin (dedifferentsiyalangan xujayralarning bulinishini induktsiyalovchi) kiritish kerak. Poya morfogenizi induktsiyasida ozika muxiti tarkibida auksinning mikdori kamrok bulishi yoki umuman bulmasligi mumkin. Ikkala gormonlarga yoki ularning bittasiga nisbatan avtonomlik shu xujayralarning gormon ishlab chikarish kobilyatiga boglik. Auksin manbai sifatida ozika muxitlarda 2,4 dixlor fenoksisirka kislotasi (2,4-D) 110 mg/ml; indolil sirka kislotasi (ISK) 1-30 mg/l; a- naftil sirka kislotasi (NSK) - 0,1-2 mg/l kabilar ishlatiladi. Kupincha 2,4-D ishlatiladi. ISK 2,4 -D ga nisbatan 30 marta kam faollikka egadir. Kallusning rivojlanishi uchun kupincha auksinning yukori mikdori ishlatitadi, tukima keyingi kayta ekilganda auksinning mikdori bir necha marta kam bulganda xam tukima usishi davom etaveradi. Sun'iy ozika muxitlarida tsitokinin manbai sifatida kinetin, 6-benzilaminopurin (6-BAP) va zeatin (0,001-10 mg/l) kullaniladi. Tukimalarning usishida va orgonogenez induktsiyasida 6-BAP kinetinga nisbatan yukori faollikni namoyon kiladi. Ba'zi ozika muxitlari tarkibiga adenin kiradi.

Auksin va tsitokininlardan tashkari ba'zi ozika muxitlari tarkibiga gibberal kislotasi (GK) kushiladi. Ozika muxitida GKning bulishi shart bulmasa xam, ba'zi xollarda u izolyatsiyalangan tukimalarning usishini tezlashtiradi. Birlamchi kallus induktsiyasini va uning usish faoliyatini tezlashtirish uchun ozika muxitiga usimlik

ekstraktlari yoki sharbatlari kushiladi. Kokos suti - kokos yongogi suyuk endospermi usish tezligini oshirish xususiyatiga ega. Kattik ozika muxitni tayyorlashda dengiz suv utlaridan olinadigan polisaxarid, agar-agardan foydalaniladi. "Bacto agar" nomli bakterial agarda keraksiz kushimchalarning mikdori kamrok buladi. Bunday agarlarni kattik ozika muxit tayyorlashda tozalamasdan ishlatish mumkin. Odatda kattik ozika muxiti tayyorlashda 5-7% agardan foydalaniladi. Vaktdan unumli foydalanish uchun makro-, mikrotuzlar va vitaminlarning eritmalarini yukori mikdorda boshlangich eritma xolda tayyorlanib, ularni kup marta suyultirib ishlatish mumkin. Kontsentrlangan eritmalar muzlatgichda saklanadi, vitaminli eritmalar minusli xaroratda saklanadi. Makrotuzlar eritmalarini 10-20 marta kup mikdorda, mikrotuzlar eritmalarini 100-1000 marta kup mikdorda, vitaminlar eritmalarini esa 1000 marta kup darajali mikdorda tayyorlanadi. Xar-xil turlarga mansub usimliklar xujayralari, tukimalari va organlarini ustirishda turli tarkibdagi ozika muxitlaridan foydalaniladi. Kupincha Murasige-Skuga (1-jadval), Uayt (2-jadval), Gamborga (V-5) (3-jadval) ozika muxitlari ishlatiladi. Murasige-Skuga ozika muxitlaridan turli modifikatsiyalar bilan apikal meristemalar ustirishda va usimliklarni mikrokupaytirishda foydalanish mumkin.

**Ishning borishi.** Kartoshka va kulupnayning apikal meristemalarini ustirish uchun moslashtirilgan (modifikatsiyalangan) Murasige-Skuga ozika muxitlarini tayyorlash. Ozika muxitlari tarkibi 4-5 jadvallarga berilgan. Avvalo makro-, mikrotuzlar va vitaminlarning boshlangich eritmalarini tayyorlash kerak. Odatda, Murasige va Skuga ozika muxitlari kuyidagi birikmalardan tayyorlanadi.

1.  $\text{NH}_4\text{NO}_3$ ,  $\text{KNO}_3$ ,  $\text{KN}_2\text{PO}_4$ ,  $\text{MgSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  ( $\text{MgSO}_4$  ni chukmaga tushishini oldini olish uchun, kizdirmasdan oxirida solinadi);
2.  $\text{CaCl}_2$  eritmasi;
3. Temir xelati eritmasi ( $\text{FeSO}_4$  va  $\text{Na}_2\text{EDTA}$  eritmasi birgalikda kaynagunga kadar kizdirilganda temir xelati xosil buladi);
4. Mikro elementlar eritmasi.

Boshlangich eritmalar uchun kerakli tuzlar mikdori va boshlangich eritmalarining ozika muxit uchun kerakli mikdorlari 1-jadvalda keltirilgan.

### Murasige-Skuga buyicha boshlangich eritmalar tayyorlash

1-jadval

| Ozuka muxitning tarkibiy kismi                        |      | Kushimchalar  |
|---|------|---|
| Makrotuzlar uchun boshlangich eritma                  | g/l  | 1 l ozika muxit uchun 50 ml boshlangich eritma olinadi. |
| $\text{NH}_4\text{NO}_3$                              | 33   |   |
| $\text{KNO}_3$  | 33   |   |
| $\text{CACl}_2$ (suvsiz)                              | 8,8  |   |
| $\text{ekiSaSl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$          | 13,8 |   |
| $\text{KN}_2\text{PO}_4$                              | 3.6  |   |
| $\text{MgSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ yoki suvsiz | 7.4  |   |
| Mikrotuzlar 100 ml boshlangich eritma uchun           |      | 1 l ozika muxit uchun 1 ml boshlangich eritma olinadi.  |
| $\text{H}_3\text{BO}_3$                               | 620  |   |
| $\text{MnSO}_4 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$             | 2230 |   |
| $\text{ZnSO}_4$                                       | 860  |   |

|  |     |   |
|--|-----|---|
| KI   | 83  |   |
| Na <sub>2</sub> MoO <sub>4</sub> 2H <sub>2</sub> O | 25  |   |
| Cu SO <sub>4</sub> 5H <sub>2</sub> O               | 25  |   |
| CoCl <sub>2</sub> 6H <sub>2</sub> O                | 25  |   |
| 100 ml boshlangich eritma uchun                    | mg  | 1 litr ozuka muxit uchun 5 ml boshlangich eritma olinadi. |
| Fe xelat   | 557 |   |
| EDTA   | 745 |   |

Tayyorlangan eritmalarini ogzi zinch yopiladigan idishlarga solib, kogoz yorlik yopishtirib, muzlatgichda saklash lozim. Temir xelati tuk rangli shisha idishda saklanadi. Vitaminlarning uta tuyingan eritmalarini aolxida-aloxida tayyorlanadi va pentsillin idishlarida saklanadi. Eritmalar tayyorlash uchun vitaminlar un martalik ogirlikda ulchanib 10 ml suvda eritiladi. SHu eritmaning 1 ml mikdori 1 litr Murasige-Skuga eritmasini tayyorlash uchun yetarlidir. Endi boshlangich eritmalaridan foydalangan xolda keyingi darslarda kartoshka va kulupnay apikal meristemalarini ustirish uchun ozika muxitlari tayyorlash kerak. Ulchami 1 litrli kimyoviy stakanga saxaroza solib idishning yarmigacha distillangan suv kuyib isitiladi, saxaroza erigandan sung, xona xaroratigacha sovitiladi va unga makro-, mikrotuzlarning boshlangich eritmalarini va vitaminlar kerakli mikdorda solinadi (1 jadval). Kartoshka apikal meristemasi ustirish uchun ozika muxitga aktivlangan kumir (4-jadval) va regulyatorlar: GK, kinetin, adenin solinadi. Gibberal kislotasi bir necha tomchi spirtga eritilib, ozgina suv kushiladi va ozika muxitga solinadi. TSitokininlar suvda yaxshi erimaydi, balki ishkor, kislota, etil spirti va etil efiri eritmalarida yaxshi eriydi. TSitokinin eritmalarini tayyorlash uchun gormonlarga ozgina (3-5 ml) distillangan suv, 0,51 ml 0,1 N KOH kushib aralashtiriladi va eriguncha isitilib, sungra ozika muxitga solinadi. Sung albatta eritmaning rN i ulchanadi, rN kursatgichi 5,5-5,6 atrofida bulishi kerak. Eritma rN normaga tugri kelmagan xollarda ozika muxitga 0,1 M HCl eritmasidan kushiladi. Bir vaktning uzida boshka stakanga agar-agar eritiladi. Buning uchun suvda ivitilgan agar (7 g) elektroisitgichda tulik erigunga kadar kizdiriladi va xarorat 50° S ga tushguncha saklab turiladi. Sung agarni tuzlar, vitaminlar va saxaroza bilan birga idishga solib, eritmaning xajmini suv bilan 1 litrga yetkazish kerak. Ozika muxitini probirkalarga solib (taxminan 1/3 xajmda), probirkalar ogzi paxta tikanlar bilan yopiladi. Ozika muxitlari avtoklavda sterillanishi kerak.

## **2 - ish. Ajratilgan usimlik xujayralari va tukimalari tupamlari bilan ishlash jarayonida sterillash usullari.**

**Asbob-uskunalar va materiallar:** 500-700 ml li kimyoviy stakanlar (2 ta), distillangan suv uchun bir litrli kolba. Petri likobchalari, buyum oynalar, skalpel, pintsept, igna, doka xaltachalar (2 ta), sterilizator, natriy bikarbonatning 1% li eritmasi, Murasige-Skuga ozika muxitli probirkalar, avtoklav, kuritish shkafi,sovuk sterillash uchun 0,15-0,45 mkm teshikli filtrlar.

**Tushuntirish.** Ajratilgan organlar, tukimalar, xujayra va protoplastlarni ustirishning muxim shartlaridan asosiysi sterillikka katta axamiyat berishdir. Sterillikni axamiyati shundan iboratki, ajratilgan organlar, tukimalar, xujayralar va protoplastlarni ustirish uchun tayyorlangan sun'iy ozika muxitlarda mikroorganizmlar xam juda yaxshi usadi. Mikroorganizmlarning rivojlanishi ustirilayotgan xujayra va tukimalar uchun ikki yoklama xavf tugdiradi. Birinchidan, mikroorganizmlarning yashash faoliyati davrida ozika muxitlarning tarkibi sezilarli darajada uzgarib, belgilangan turgun sharoitda xujayraning usishi tuxtaydi. Ikkinchidan, usimlikdan ajratilgan tukima, xujayra va ayniksa protoplastlarni mikroorganizmlar osongina zararlaydi. SHuning uchun ajratilgan organ, tukima xujayra va protoplastlar bilan olib boriladigan tajribalar steril xonalar, bokslar yoki laminar-bokslarda olib boriladi. Bokslar, asboblar, idishlar, usimliklar, ozika muxitlari, paxta tикинлар va boshka ishga kerakli narsalar xammasi sterillanadi.

**Laminar-boks sterilizatsiyasi.** Laminarning ish olib boriladigan ichki yuzasi 70% li spirt bilan artiladi. Sung laminarga spirtovka, gugurt, 96% spirtli stakan, sterillangan idishlar, asboblar va sterillangan suvli kolba joyланади. Meristemalar ajratishda laminarga binokulyar lupa xam kuyiladi. Ishlashdan oldin 2 soat davomida laminar boks bakteriotsid ultrabinafsha lampasi bilan nurlantiriladi. Ishlashdan ikki soat oldin laminarning ichki yuzasi 70% li spirt bilan yana arrtiladi.

Ish boshlashdan avval kullarni yaxshilabsovun bilan yuvib, spirt bilan artib, sterillangan xalat kiyib va ogziga steril nikob tutiladi.

**Idishlarni sterillash.** Idishlar kuritish shkaflarida kuruk issikda yoki nam bugda avtoklavda sterillanadi. Sterillashdan oldin idishlarni yaxshilab yuvib, kuritish kerak. Idish yuvish uchun turli idish yuvish vositalari va xromli (kaliy bixromatning sulfat kislota eritmasi) ishlatiladi. YUvilgan idishlarni distirlangan suvda chayib, kuritish shkafida kuritiladi. Sterillashdan avval xavodan infektsiya tushishining oldini olish uchun probirkalar, kolbalar ogzi paxta tикинлар bilan yopiladi va kogozga uraladi. Sungra idishlarni kuritish shkaflariga joylab 2 soat  $160^{\circ}\text{S}$  da kizdiriladi. Bunday kizdirishda bakteriyalargina emas, balki ularning sporalari xam uladi. Kuritish shkafidagi xaroratni  $175^{\circ}\text{S}$  dan oshirish mumkin emas, chunki paxta tикинлар sargayib ketadi, idishlar uralgan kogoz esa sinuvchan xolga kelib koladi. Avtoklavda bosim ostida bundan xam yaxshirok sterillashga erishish mumkin, chunki namli issiklikda kizdirilganda mikroorganizmlar va ularning sporalari yana xam yaxshi uladi. Turli xil stakanlar, Petri likobchalari, pipetkalar, distillangan suvli kolbalar avtoklav kilinadi. Idishlar folga yoki urash kogozlariga uralgan xolda 25-30 dakika 2 atmosferada avtolav kilinadi. Pipetkalarni avtoklav kilishda ularning yukori kismiga paxta tikib, aloxida-aloxida kilib uraladi.

**Asbob uskunalarini sterillash.** Asbob uskunalar, skalpel pintset, ignalar va xakozalar kuritish shkafida 12 soat davomida  $140^{\circ}\text{S}$  kuruk issiklikda yoki suvda kaynatib sterillanadi. Temirdan yasalgan asboblar avtoklav kilinmaydi, chunki nam bug ta'sirida ular zanglaydi va utmas bulib koladi. Ish boshlashdan avval va ish davomida asboblar chinni stakanlarga solinib, 96% li etil spirtida sterillanadi va spirtovka alangasida kizdirib olinadi. Spirtovka alangasida lantsetlar, pintsetlar va mikrobiologik ilmoklar kizdriladi va steril kogozlar orasida saklanadi. Sterillangan asboblar fakt bir marta ishlatiladi, kayta ishlatilganda ular yana spirtda sterillanadi va alangada kizdiriladi. Ignarva pakkilar spirtga solib sterillanadi.

**Materillarni sterillash.** Tajribada ishlatiladigan paxta, doka, paxta tикинлар filtr kogozlar, xalatlar va rumollar vatoklavda 2 atmosferada 25-30 dakika sterillanadi.

**Usimlik materillarini sterillash.** Uruglar, yukori meristemalar, usimlikning turli kismlaridan olingen tukima bulaklarini sterillash uchun turli sterillovchi eritmardan: sulemaning 0,1% li eritmasi, 1% li brom eritmasi, 13% li pergidrol, 3-6% li xloramin, diotsid, 10% li natriy gipoxloridning suvdagi eritmalaridan foydalaniladi. Ildiz mevalar, tunganaklar, usimliklarning yugon poyalari sovun va ishkalagich bilan okar suvda yaxshilab yuviladi, pustlogi shilinadi, (ildizlar va ildiz mevalar), distillangan suvda chayiladi va absolyut spirtga bir necha sekundga solib olinadi. Usimlik ob'ektlari sterillangandan sung, sterillovchi moddalardan tozalash uchun distillangan suvda kup marta chayilishi kerak. Ayniksa bromidli suv bilan ishlov berilgan usimlik materillarini dikkat bilan yuvish kerak chunki bromidning eng kam mikdori xam uruglarning usishini tuxtabit kuyadi. Brom bugi zaxarli bulganligi uchun, brom bilan sterillashda albatta tyaga shkaflaridan foydalanish kerak. Brom eritmasida fakat makka uruglarini sterillashda foydalanish tavsiya etiladi, loviya, kovok va boshkalar uchun - sulema ishlatiladi. Brom va sulema bilan sterillash vakti 10-15 dakikani, pergidrol bilan 30 dakikani tashkil kiladi. Meristemalar va usimliklarning xar xil kismlaridan olingen bulaklari ikki marta tezrok sterillanadi. Tukli uruglar (chigit) yukori kontsentratsiyali sulfat kislotasiga 5 dakika solinsa yaxshi sterillanadi. Pergidroldan uruglar osonrok yuviladi (steril suv 5-7 marta uzgartiriladi). Sulemadan sung suv 5-6 marta uzgartiriladi. Bromdan sung suv 12 soat davomida, yuvishning boshida xar 30 dakikada, sungra esa xar 3 soat davomida almashtirilib turiladi. Antiseptiklar bilan ishlov bermasdan, pomidor, olma, kovok, tamaki va dukkaklilardan steril uruglar olish mumkin. yetilish davrida bu usimlik uruglari gushtli, yogochli yoki danakli katlamlar orasida joylashgan buladi. Sog va zararlanmagan bu mevalar sovunli suvda va spirtda bir necha marta yuviladi. Sung aseptik sharoitda bulaklarga bulinadi, steril skalpel bilan uning ichidan uruglar olinadi va steril filtr kogozi solingan Petri likobchalariga solinadi.

**Ozika muxitlarini sterillash.** Ozika muxitlari bosim ostida (avtoklavda) bug bilan sterillanadi. Ozika muxitlari solingan probirkalar ogzi paxta tикинлар bilan yopilib stakanlarga solinib, urash kogoziga uraladi va 1 atmosfera bosimda  $120^0$  S da 20 dakika davomida avtoklav kilinadi.

**Sovuk sterillash.** Issiklikka chidamsiz organik suyukliklar, bakteriyalardan mayda teshikli (diametri 0,15-0,45 mm teshikli) bakterial filtrlardan utkazish orkali tozalanadi.

**Ishning borishi.** Kartoshka va kulupnay apikal meristemalarini ajratish va ustirish uchun kerakli bulgan asboblar, idishlar, ozika muxitlari sterillanib olingen bulishi shart.

1. Petri likobchalari (2 ta), 500-700 ml li kimyoviy stakanlar (2 ta) va buyum oynachalar pishik kogozga uralgan xolda  $160^0$  S da 2 soat davomida kuritish shkaflarida sterillanadi.

2. Skalpel, ajratish ninalari, pintsetlar kuritish shkafida  $140^0$  S da 1 soat davomida sterillanadi va tayyorlangan asboblar laminardagi kogoz varaklari orasiga joylanadi.

3. Ogzi paxta tикинлар bilan yopilgan probirkalardagi ozika muxitlari 1 atmosfera bosimda 20 dakika davomida sterillanadi. Ozika muxitli probirkalar 10-20 tadan

stakanga solingan bulishi kerak. Bir vaktning uzida usimlik materiallari uchun doka xaltachalarni kogozga urab avtoklav kilinadi.

### 3 - ish. Steril usimtalar ustirish.

**Material va asbob uskunalar.** Soya, loviya, nuxat uruglari, steril Petri likopchalari, steril suvli probirkalar, steril pintset, doka kopchalar, 0.1% li sulema eritmasi, 96% li etil spirti, 2 ta steril kimyoviy stakan, steril suvli kolba va 2-4-D steril eritmasi (10 mg/l).

**Tushuntirish.** Steril usimtalar eksplantlar olish maksadida kallus yoki shish kulturalariga utkazish uchun ustiriladi. Kuyiladigan tajribaning maksadiga karab uruglar suvgaga yoki agarli ozika muxitiga ekiladi.

Steril usimtalardan foydalanishning ikki yuli mavjud:

- 1) Differentsial tukimalarni fitogormonlar tutuvchi ozika muxitlariga utkazib differentsialuvchi va intensiv poliferatsiya natijasida kallusli tukimalar xosil kiluvchi eksplantlar olish;
- 2) Keyinchalik madaniylashtirish maksadida usimtalardan birlamchi kallus olish uchun ularni fitogormon tutuvchi ozika muxitiga steril sharoitda utkazish.

Usimtalarda kallusning paydo bulishi uchun fitogormonlar bulishi shartdir, shuning uchun ularni auksin va tsitokinin tutuvchi ozika muxitlarida ustirish lozim. Murtagida ozika moddalar zaxirasi kup bulgan uruglarni (nuxat, loviya va soya) auksinning suvli eritmasida xam ustirish mumkin. Kurtaklar 2,4-D eritmasida ustirilganda kallusning xosil bulish jarayoni tezlashadi.

**Ishning borishi.** Nuxat, loviya va soya usimliklaridan 20 ta xar xil soglon uruglar saralab olinadi. Ular oldin sovunli eritmada, sungra vodoprovod suvida va distillangan suvda yaxshilab yuviladi. YUvilgan uruglarni doka kopchalarga joylab 25 dakika 96% li spitrga solinadi, suvda yaxshilab yuvib 0,1% li sulema eritmasida 10 dakika sterillanadi va oxirida besh marta yaxshilab steril suvda chayiladi. Tajribalar laminar - boksda olib boriladi. Steril pintset bilan tagiga filtr kogoz solingan Petri likobchalariga 10 tadan urug solinadi va 10 ml steril suv kuyiladi. Nuxat, loviya va soya uruglari ustirishga tayyorlangan probirkadagi suv paxta tikinlar bilan yopilgan bulib, 20 dakika 2 atmosfera bosimda avtoklavda sterillangan bulishi kerak. Uruglar solingan Petri likobchalar 25<sup>0</sup> S xaroratdagi termostatga kuyiladi. Ikki kundan sung (uruglar ungandan sung) Petri likobchalarining biridagi suv 2.4-D ning steril eritmasiga (10 mg/l) almashtirib kuyiladi. Bir xafadan sung natijalar kuriladi va chizib olinadi (suvda va 2,4-D eritmasidagi usimtalar). 2,4-D eritmasidagi usimtaning kaerida kallus xosil bulganligi belgilanadi.

## **2 - mavzu. O'simliklarning klonli mikrokupayishi va sog'lomlashtirilgan virussiz ekish materiallari olish**

### **4 - ish. Kartoshkaning apikal meristemasi ajratish va ustirish.**

**Material va asbob uskunalar.** Kartoshka tunganagi, binokulyar lupa, skalpellar, ajratish ninalari, pakki, ushlagichli kiskichlar, steril ozika muxitli probirkalar (4-jadvalga karalsin).

**Tushuntirish.** Izolyatsiyalangan apikal meristemalar kulturasi, usimliklarni mikroklonal kupaytirish uchun ekiladigan virussiz materiallar olishda foydalaniladi. Virussiz material olish usuli kasal usimlikning usish nuktasiga yunalishi bilan viruslarning mikdori kamayishiga asoslangan.

Odatda apikal meristema viruslardan umuman xolidir. Xususan viruslardan xoli apikal meristema faol bulinuvchan, uzunligi 0,1 mm, eni 0,25 mm bulgan konus shaklidagi xujayralardan iboratdir. Asosan meristemani jaroxatlarsiz bulaklarga ajratish kiyin bulganligi sababli, uni 1-2 barg primordiylar (ulchami 100-250 mkm apekslar) bilan ajratib olinadi. Kartoshkaning faol soglomlanishini oshirish uchun yukori meristemalar usuli termoterapeya va kimyoterapeya bilan birgalikda olib borish ozika muxitlariga viruslarni ingibirlovchi moddalar kushilishiga asoslangan. Apikal meristemalardan ozika muxitda apikal kartoshkaning virussiz usimliklari olinadi, ular kupayitirilib, issikxonalarga kayta ekiladi va virussiz tunganaklar olinadi. Soglomlashtirilgan materialni tez kupaytirish uchun in vitro olingan tunganaklardan xam foydalanish mumkin.

**Ishning borishi.** Kartoshka tunganaklari 4-8<sup>0</sup> S da saklanadi, sung korongulikda 2022<sup>0</sup> S da ustiriladi. Meristemalarni bulaklarga ajratish ishlari bakteriotsid lampalar bilan sterillangan laminar bokslarda amalga oshiriladi. Ish boshlashdan avval ish joylari, stol, binokulyar lupalar va probirkali shtativlar spirt bilan aritib chikiladi. Bulaklarga ajratish uchun ishlatiladigan asboblar (pintsetlar, skalpel va ignalar) xar bir ajratishdan sung sterillanadi, buning uchun asboblar spirtga solinib, spirtovka alangasiga tutiladi. Nixollar meristemalarga ajratishdan oldin 3-5 dakika davomida 0,1% li diotsid eritmasida sterillanadi. Buning uchun nixollar kimyoviy stakanga solinib ustidan diotsid eritmasi kuyiladi. Keyin uch marta steril suvda chayiladi. SHuningdek 1-6% li kaltsiy yoki natriy gipoklorid eritmasida yoki 0,1% li sulema eritmasida xam sterillash mumkin. Sterillangan nixollar Petri likobchasiga joylanadi va kurib kolmasligi uchun bir necha tomchi sterillangan suv solinadi. Nixolni bulaklarga ajratishdan oldin, bargni yukori va yon meristemalarni asta- sekinlik bilan yalangochlagan xolda uning uchidan yopkich barglar olib tashlanadi. Bu ishni binokulyar mikroskop ostida ajratish ignasi yordamida bajarish mumkin. 100-250 mk kattalikdagi boshlangich bargsiz meristema ushlagichga kistirilgan oddiy ingichka nina bilan bulaklarga ajratiladi. Xar bir bargni yulishda alovida sterillangan asbobdan foydalanish kerak.

Ajratilgan meristema ninaning uchida probirkadagi ozika muxit yuzasiga jolashtiriladi. Probirka ogzi va paxta tikin spirtovka alangasida sterillanib yopiladi va shtativga joylanadi. SHtativ probirkalar bilan tulgandan sung ozika muxit kurib kolmasligi uchun tselofan kalpokcha bilan yopib kuyiladi. Ozika muxiti sifatida avvaldan 1 mashgulot uchun tayyorlanib, avtoklavda 20 dakika 1 atm. bosimda sterillangan Murasige-Skuga ozika muxiti ishlatiladi. Oradan 2,3,4 xaftha utgandan

sung meristemadan nixollarning rivojlanishi kuzatiladi va shu jarayon boskichlari chizib olinadi.

**Material va asbob uskunalar.** Kartoshkaning probirkadagi usimligi, modifikatsiyalangan va sterillangan Murasige-Skuga ozika muxitli probirkalar, steril skalpel, pintsetlar va Petri likobchalar.

**Tushuntirish.** Apikal meristemalardan olingan virussiz kartoshka usimliklari sun'iy ozika muxitlarida kupaytirilishi kerak. Kartoshkani kupaytirishning keng tarkalgan usuli bu probirkadagi kulturada usimlikning kalamchanishidir. Buning uchun usimlik probirkadan olinadi, xar birida bargli poya va kultik kurtak bulgan bulaklarga bulinadi. X,ar bir kalamcha Murasige-Skuga ozika muxiti solingen probirkalarga utkaziladi. Kalamcha yordamida kupaytirish novdaning usish nuktasini olib tashlash yuli bilan apikal ustunlikni kamaytirib, yon meristemalarning faollanishiga asoslangan. Kalamchaning yon kurtagini ozika muxitiga utkazilganda undan novda usib chikadi. Keyingi kalamchalash xar 14-21 kundan sung olib boriladi. Bitta usimlikdan 5-8 kalamcha olinadi. 3 oy mobaynida kalamchalash yuli bilan 3-5 ming usimlik, 7 oy ichida esa kupayish koeffetsentini 1:30-40 mingga yetkazish mumkin. Sungra, soglomlashtirib ekiladigan materiallarni kupaytirishning keyingi boskichi, ya'ni issikxonalarda olib boriladigan boskichiga utiladi. Bunda probirkadagi usimliklar agarli ozika muxiti bilan birlashtirishda tuproklar tuvaklarga ekiladi. Usimliklar 3-7 kuni Knop eritmasi va Murasige-Skuga buyicha mikroelementlar bilan: 5 ml boshlangich eritmaning 1 x 100 kontsentratsiyali 1 ml suvdagi eritmasi bilan oziklantiriladi. 7-100 kundan sung usimliklar virussiz tuganaklar olish uchun, issikxonalarga doimiy joyiga utkaziladi va olingan xosil keyinchalik dalaga ekiladi.

**Ishning borishi.** Laminarda probirkadan kartoshka usimligi Petri likobchasiga olinadi, xar birida bargi va kultik kurtagi bulgan poya bulaklariga bulinadi. Barg tagidagi poya kismi barg ustidagi poya kismidan 2-3 marta kichik bulishi kerak. Ish davomida sterillikka katta axamiyat berilishi lozim. Kalamchalarni modifikatsiyalangan Murasige-Skuga ozika muxiti probirkalarga olib ekiladi. Bunda, mikroorganizmlar tushishining oldini olish uchun probirkaga ogzi va paxta tikinlar spirtovka alangasida sterillanadi. Kalamchali probirkalar rasmi chizib olinadi va yoruglik kamerasiga kuyiladi. Novdaning rivojlanishi 7-14 kundan sung kuzatiladi va usimlikning rivojlanishi boskichlari chizib boriladi.

## 5 - ish. Kulupnayning apikal meristemalarini ajratish va ustirish. Kulupnayning mikroklonal kupayishi.

**Material va asbob uskunalar.** Kulupnay stolonlari, steril ozika muxitli probirkalar (5-jadval), steril Petri likobchasi, skalpel, igna, spirtovka, gugurt, 96% li etil spirti, sulemaning (0,1% li) suvdagi eritmasi, doka xaltachalar, 1 litr steril suvli kolba va 2 ta steril kimyoviy stakan.

**Tushuntirish.** Kulupnay apikal meristemalari tarkibida kinetin (0,5-1 mg/l) mikdori yukori bulgan ozika muxitida ustirilganida, shu gormon ta'sirida yukori meristemaning apikal dominatligi pasaytirilib, yon meristemallarning faollahuviga yuzaga keladi. Natijada, meristemal kopol va 1-2 ta barg primoydiylaridan iborat izolyatsiyalangan, yukori kismini ozika muxitiga joylashtirilganidan taxminan ikki xaitdan sung ochilayotgan barg asoslari okarib kattalasha boshlaydi va tez orada

ularning kultigidan rivojlanib kelayotgan kurtaklardan barglar kurina boshlaydi. Eksplantlar 1-2 oydan sung turli xil va turli kattalikdagi barglari rivojlangan konglomeratlarga aylanadi. X,osil bulgan kurtaklar bir-biridan oson ajraladi, yangi ozika muxitiga utkazilganida yangi kultik kurtaklarni yuzaga kelishi davom etadi va shu bilan birga ildiz xosil kilmasdan usish nuktalari sonining kupayishiga olib keladi. Kurtaklar ildiz xosil kilishi uchun auksin tutuvchi ozika muxitiga utkazilishi kerak.

**Ishning borishi.** Kulupnay stolonlari sovunli suvda yuviladi sung vodoprovod va distillangan suvda chayiladi. Kulupnay stolonlari barglari asosida joylashgan kultik kurtaklari skalpel bilan ajratiladi. Bu ishni laminardan tashkarida bajarish mumkin. Kolgan ishlarning xammasi laminarda olib boriladi. Kurtaklar doka xaltachalarga solinib, 0,1% li sulema eritmasida 6-10 dakika sterillanadi. Sung xaltachalarni ipi orkali tortib olib 5-6 marta steril distillangan suvda yuviladi. Buning uchun 6 ta steril suvli stakanlar bulishi shart emas, chunki ular laminarda kup joy egallaydi. Buning uchun ikkita stakan bulishi yetarli, kurtaklar solingan xaltachalar stakandagi suvga tushiriladi va bir necha dakika davomida chayiladi, sung suv ikkinchi stakanga tukiladi va kolbadan steril suv solinib xaltachalar bir necha marta chayiladi. Sterillangan kurtaklarni xaltachalardan Petri likobchalariga olib, meristemalar ajratiladi. Buning uchun buyum oynasiga kuyiladi va 9 marta kattalashtiruvchi mikroskop ostida kuriadi. Kurtakni koplovchi kupgina barg burtiklaridan ajratish ninasi bilan ushlab turib, skalpel bilan tozalanadi va 1-2 barg primodiylaridan iborat meristemal kupol ajratib olinadi. Sungra u skalpel bilan probirkadagi ozika muxitiga utkaziladi (5-jadval). Probirka ogzi va paxta tikan spirtovka alangasida sterillab yopiladi. Probirkalar tselofan bilan yopilib  $25^0$  S xaroratdagi klimatik yoruglik kamerasiga kuyiladi. Turt xtaftadan keyin xosil bulgan konglomerat kuzatiladi va rasmi chizilib olinadi. X,osil bulgan kurtaklar soni aniklanadi. Ulardan kulupnayni mikroklonal kupayishida ildiz xosil bulish induksiysi ishida foydalaniladi.

## **6 - ish. Kulupnayning mikroklonal kupaytirishda ildiz xosil bulish induktiyasi.**

**Material va asbob uskunalar.** Kulupnay kurtaklari konglomerati bulgan ozika muxitli probirka, steril ozika muxitli probirka, steril pentsit, skalpel, Petri likobchasi, spirtovka, , 96% li etil spirti, gugurt, steril suvli stakan.

**Tushuntirish.** Kulupnay apikal meristemalarini tsitokinin (6-BAP) saklovchi ozika muxitlarida ustirilganida, kultik meristemalarining faollashuvi natijasida 1 ta yukori meristemadan kupgina poya kurtaklari xosil buladi, usish nuktasi chuziladi va yangi barglar xosil buladi. Ammo bu ozika muxitida kurtaklardan ildizlar xosil bulmaydi. Kulupnayning mikroklonal kupayishi uchun kurtaklar tarkibida auksin bulgan ozika muxitiga utkazilishi kerak.

**Ishning borishi.** Tajriba uchun kulupnay apikal meristemasi 3-4 xafalik kulturasi olinadi. Steril sharoitda laminar yoki boksda probirka tikanlari olinib, spirtovka alangasiga tutiladi va steril pintset yordamida kulupnay kurtaklari konglomeratlari olinadi. Konglomerat asosi ortikcha agarli ozika muxitidan tozalanadi, steril suvda yuviladi va steril Petri likobchasiga solinadi. Konglomerat skalpel yordamida aloxida-aloxida kurtaklarga bulinib, ildiz xosil kilish uchun tayyorlangan ozika muxitli probirkalarga ekiladi. Probirkalar ogzi va paxta tikanlar spirtovka alangasida sterillanib yopiladi va tselofanga urab xarorati  $20^0$  S, namligi

60% va yoritilishi 10000 lyuks bulgan yoruglik kamerasiga joylanadi. Bir xtaftadan sung natijalar kuriladi va chizib olinadi. Ildiz xosil bulishining boshlangich davri belgilanadi. Keyingi kuzatishlar kurtaklarni ildiz xosil kilish uchun kayta ekilgandan 1 oydan sung olib boriladi. Bu vaktga kelib usimliklarni nosteril sharoitda ekish mumkin buladi. Bunday usimliklar odatda, torf va kum (3:1) solingan kuti yoki tuvaklarga ekilib, polietilen plynokali klpor ostiga kuyiladi.

### **3 - mavzu. Kallusli tukima kulturasi 7 - ish. Tamakining uzak parenximasidan**

#### **kallusli tukima olish va ustirish.**

**Material va asbob uskunalar.** Gullash davridagi yetuk tamaki usimligi, distillangan suvli kimyoviy stakan, paxta, 96% li etil spiriti, 0,1% li sulema yoki diotsid eritmasi, steril suvli 4 ta stakan, steril doka xaltachalar, steril skalpel, Petri likobchasi, Murasige va Skuge steril ozika muxitli kolbalar.

**Tushuntirish.** Kallus bu dedifferentsiyalangan xujayralardan iborat shakllanmagan massa. Kallusning xosil bulishi va usishi auksin xamda tsitokinin guruxlariga mansub bulgan fitogormonlar tomonidan nazorat kilinadi. Ixtisoslashgan tukimaning differentsiatsiyalangan xujayralari auktsin ta'sirida dedifferentsirov- kani yengadi, tsitokininlar ta'sirida esa faol bulinishga utib, kallusli tukima xosil kiladi. Ikki pallali usimliklar kalluslari, fitogormon tutuvchi turli sun'iy ozika muxitlarida turli organlar eksplantlarida: aseptik usuvchi uruglarda, poya va ildiz bulaklarida, izolyatsiyalangan parenxima bulaklarida, tuganak tukimalarda, izolyatsiyalangan poya murtagida, bargda oson xosil buladi. Tamaki poyasi uzagidan kallusli tukima olish uslubi Skuga va Butenko laboratoriylarida ishlab chikilgan.

**Ishning borishi.** Tamakining gullash vaktida poyasining yaxshi rivojlangan, yogochlanmagan uzagidan (2-3 bugin oraligidan) bir kismi kesib olinadi. Ular 5 sm uzunlikdagi bulaklarga bulinib, avval sovunli suvda sung vodoprovod va distillangan suvda yuviladi. YUvilgan bulaklar distillangan suvli stakanga solinib, suvning yuziga suzib chikmasligi uchun ustiga paxta yopiladi (poyaning yuvilgan kismi doimo vertikal xolatda turishi kerak). Sungra ular ozika muxitga utkazish uchun laminarga olinadi. Sterillash uchun tamaki poyalari 96% li etanol bilan artiladi, doka xaltachalarda 0,1% li sulemaning suvli eritmasiga 10-15 dakikaga yoki diotsid eritmasiga 25 dakika solinadi. Sung 5 marta 5 dakikadan distillangan suvda yuviladi. Poyaning urta kismidan uzak tukimasi olinib steril Petri likobchasi solinadi. Steril skalpel bilan atrofdagi tukimalar olib tashlanadi. Tozalangan uzak floema va kambiy kismlardan xoli bulishi kerak. TSilindr shaklidagi uzak Petri likobchalariga skalpel bilan 2-3 mm li bulaklarga bulinadi va 100 ml li kolbalarga solingan Murasige-Skuga agarli ozika muxiti yuzasiga joylashtiriladi. Kallus tukimalarining rivojlanishi uchun kolbalar  $26^{\circ}$  S li termostatga joylanadi. Uch xtaftadan sung tajriba natijalari kuzatiladi va chizib olinadi.

### **8 - ish. Soya urugpallasidan kallus tukimasi olish va ustirish.**

**Material va asbob uskunalar.** 2-3 kunlik steril soya usimliklari, steril Petri likobchasi, skalpel, pintset, Miller ozika muxitli 100 ml li kolba yoki 20 ml li probirkalar (8-jadval).

**Tushuntirish.** Kallus tukimasini sterillanmagan usimliklarning turli kismlaridan, masalan tamaki poyasi uzagidan, sabzi ildiz mevasidan shuningdek steril sharoitda ustirilgan usimlik usimtalaridan yoki usimliklardan olish mumkin. Keyingi xolda kallus olish texnikasi ancha soddarok bulib, materialni oldindan sterillashni talab kilmaydi. Mazkur ishda soya urugpalla usimtalaridan kallusli tukima olish imkoniyatlari kursatilgan.

**Ishning borishi.** Petri likobchasi yoki probirkadagi soya usimtalari laminarda steril Petri likobchasi yoki buyum oynasiga olinib skalpel yordamida usimtalardan urugpalla ajratib olinadi va 4x4x2 mm li kubiklarga bulinadi. Pintset yordamida ularni 100 ml li tagi yumalok kolbalarga yoki 20 ml li probirkalarga (tarkibida 0,5 mg/l kinetin bulgan Miller ozika muxiti solingan) joylashtiriladi (6-jadval). Uch xtaftadan keyin tajriba kuzatiladi va urugpallalarda xosil bulgan kallus tukimasining rasmi chizib olinadi.

#### **9 - ish. Sabzi ildiz mevasidan kallus tukimasi olish va ustirish.**

**Material va asbob uskunalar.** Sabzi ildiz mevasi, probka, steril skalpel, pintset, Petri likobchasi, kogoz varagi. Uayt ozika muxitli steril Petri likobchasi.

**Tushuntirish.** 1939 yili birlinchi bulib Gorte tomonidan sabzi ildiz mevasidan kallusli tukima olingan. Bu tukimalar yangi ozika muxitga kayta-kayta ekilishi sababli uzok vakt usishda davom etgan. Ustirish uchun olingan sabzi ildizmevasi parenximasining ksilema va floema tukimalari uzining bulinish va usish xususiyatlarini yukotmagan. Kallus birlamchi va ikkilamchi meristemalar atrofida, shunigdek shu meristemalar yonida joylashgan yoki ikkilamchi ildiz tukimalari parenximalarida xosil bulgan. Kallus xosil bulish jarayoni eksplantning ulchamiga boglik. Eksplant kancha yirik bulsa, xujayralar tuplami shunchalik murakkab va xilma- xildir. Natijada kallus paydo bulishida asosiy tukima va kallus xosil kiluvchi xujayralar orasida murakkab munosabatlar yuzaga keladi. Birlamchi eksplantning ulchami odatda 5-10 mm, ogirligi 20-100 mg buladi. Kupgina tukimalar fiziologik polyarlikka egadir. Buning natijasida kallus eksplant tomonida ya'ni usimlikning ildiz kismiga yunalgan joyda faol rivojlanadi bu xolni sabzi ildizi bulaklaridan kallus olishda inobatga olish kerak va ularni agarga apikal tomoni bilan joylashtirish kerak.

**Ishning borishi.** Eksplantlar olish uchun sabziningsoglon ildiz mevalari tanlab olinadi, ishkalagich bilansovunlab yuviladi, keyin vodoprovod va distillangan suvda yuvilib sterillash uchun 96% li etanolga 5 dakika solinadi. **Steril suvda chayilmaydi.** Sterillangan kogozlar orasida sabzi ildizmevasining yukori bulagi kesib olinadi va steril probkabur bilan tukimadan tsilindrler kesib olinadi. Sabzi ildizmevasi eksplanti ksilemali va floemali parenxima va kambiydan iborat bulishi kerak. Ajratilgan tsilindrler Petri likobchasiga joyланади, 5 -10 mm li xalkalar kesiladi. Keyin sabzi xalkalari pintset yordamida Uayt ozika muxitli Petri likobchalariga joyланади va termostatga 25° S da ustiriladi. Uch xtaftadan keyin natijalar kuzatiladi va xosil bulgan kallusning rasmi chizib olinadi.

## **10 - ish. Beda barglaridan kallus tukimasi olish va ustirish.**

**Material va asbob uskunalar.** Bedaning probirkadagi steril usimligi, MV-5 ozika muxitli steril probirkalar (3-jadval), steril skalpel, pintset, Petri likobchasi, spirtovka, gugurt, 96% li etanol.

**Tushuntirish.** Usimlikning turli kismlaridan shuningdek yashil barglaridan xam kallus tukimalari olish mumkin. Birok yashil barglardan kallus olishda ularni yoruglikda ustirilganda, dedifferentsirovkadan keyin xosil bulgan kallus tukimasi uzining yashil rangini va fotosintez kilish xususiyatini yukotadi. Tukimalarning zararalanishi xujayra dedifferentsirovkasini va kallusogenez kobiliyatining yuzaga kelishiga olib keladi, shuning uchun barglarni ozika muxitiga joylashdan avval kallusning xosil bulishini yaxshilash uchun tomirlari kesiladi.

**Ishning borishi.** Laminar yoki boksda, sterillikka rivoja kilgan xolda probirkadagi beda usimligi olinib, brqlar ajratiladi va Petri likobchalariga joylanadi. Uchtaлик barglar skalpel bilan bargchalarga ajratiladi, barg yuzasi bulab tomirlar bir necha joydan kesiladi Agarli V-5 ozika muxitli Petri likobchasiga yoki probirkalarga joylanadi. Uglerod manbai sifatida ozika muxitiga saxaroza (30 ml) solinadi, rN 6,0 gacha yetkaziladi. MV-5 ozika muxitining tarkibiy kismlaridan tashkari (3 jadval), 2,4-D fitogormoni, 8,0 mg/l kinetin, 0,5 mg/l HCK, 250 mg/l ammoniy nitrat va temir xelati uch marta kupaytirilgan (111 mg/l Na<sub>2</sub> EDTA, 84 mg/l FeSO<sub>4</sub> 7H<sub>2</sub>O olinadi) mikdori solinadi. Ozika muxiti probirka yoki kolbalarda avtoklav kilinadi va Petri likobchalariga solinadi. Eksplantlarni utkazishdan avval kondensatlarni yukotish uchun ularni 3-5 kun 26° S darajali termostatda saklanishi lozim. Eksplantlar ozika muxitiga utkazilganidan keyin yoruglik kamerasiga joylanadi va uch xaftha doimiy yoruglikda inkubatsiya kilinadi (kamera xarorati 26° S, nisbiy namligi 95-100% bulishi kerak). Zarur bulgan namlikni saklab turish uchun probirkalar yoki Petri likobchalarini joylashgan patnisning urtasiga stkanda suv kuyib ustini polietilen plyonkasi bilan yopish kerak.

Bir xافتдан keyin eksplantlar kuzatiladi va rasmi chizib olinadi. Odatda 7-10 kundan keyin ular yashil rangini yukotadi va kallus tukimasining rivojlanishi kuzga tashlanadi (avval kesmalar atrofida, sung bargning butun yuzasi bulab). Uch xافتдан sung yaxshi rivojlangan kallusni kurish mumkin.

## **11 - ish. Steril kartoshka usimligi poyasidan kallus olish va ustirish.**

